

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA ADABIY TALAFFUZ
KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING ZARURATI**

Avezova Dilnura Bayramovna

Nizomiy nomidagi TDPU O‘zbek tili va uni o‘qitish
metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf darsliklaridagi orfoepiyaga doir mashq va topshiriqlar tahlil qilingan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida orfoepik mashq va topshiriqlar orqali so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish ko‘nikmasini shakllantiruvchi topshiriqlar metodik tavsiya sifatida berilgan.

Kalit so‘zlar: orfoepiya, ko‘nikma, malaka, topshiriq,adabiy talaffuz va imlo, dastur va darslik.

Introduction

Boshlag‘ich ta’lim tizimida orfoepiyaga doir o‘quv materiallari mazmunini takomillashtirish, imloviy savodxonlikni oshirish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Har qanday tilning asosini uning tovushlar tizimi, ya’ni fonetika hamda orfoepiyasi tashkil qiladi. Boshqa rivojlangan xorijiy tillarni o‘qitishga doir ilmiy adabiyotlarda talaffuzga alohida e’tibor beriladi va ta’lim jarayonida orfoepik mashqlardan unumli foydalaniladi.

Orfoepiya bo‘limini o‘qitish orqali o‘quvchilarda unli va undosh tovushlar talaffuzi va imlosi bilan bog‘liq bilimlar hosil qilish bilan bir qatorda kreativ fikrlash ko‘nikmalari ham shakllantirib borilishi lozim.

Milliy o‘quv dasturi asosida yaratilgan 1-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligi avvalgi darsliklardan tubdan farq qilib, darslikda berilgan mavzular, topshiriqlar, audiomatnlar mazmuni xalqaro talablar mos holda yaratilgan.Ushbu darslikda o‘quvchini mazmunli matn tuzishga qaratilgan topshiriqlar mavjudligi hamda o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishga qaratilgan mavzular hamda to‘g‘ri talaffuz ko‘nikmasini shakllantiruvchi topshiriqlar berilgan.Masalan: aytilishi va yozilishida farqlanuvchi unli va undosh tovushlar ishtirot etgan so‘zlar ya’ni *go’sht, barg, ukki, to’qqiz* [Azimova, Mavlonova, 2021: 13]ni ifodalovchi rasmlar berilgan. O‘quvchilar avval rasm asosida so‘zni og‘zaki nutqda to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rgansa, so‘ngra shu so‘zlar ishtirotida gaplar tuzish orqali nutqida so‘zlarning to‘g‘ri talaffuzini qo‘llash malakasi shakllanadi.

2-sinf Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligida to‘g‘ri talaffuz qilish uchun *Nobel, Shvetsiya, dollar, fond, diplom, mikrob, mikraskop, million, biotin*[Azimova, Mavlonova, 2021: 13] so‘zlari berilgan. Ushbu so‘zlarni dastlab o‘quvchilarga talaffuz qildirganda ayrimlari *Nobil, Shvessiya, dollir, font, diplom, mikro ‘b, mikrasko ‘p, milyon, biyotin* tarzida talaffuz qilishadi. Ushbu xatolar ustida ishlab, doskaga yozdirish orqali xatolarni bartaraf etish mumkin bo‘ladi. Ona tili darsliklarida to‘g‘ri talaffuz va imlo me’yorlarini ko‘nikma sifatida shakllantirish borasida ko‘plab mashqlar ,turli tushuntirishlar beriladi.Ammo nutqiy faoliyat davomida ayrim

nutq tovushlarining adabiy talaffuzi va imlosini o‘quvchiga o‘rgatish qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaraveradi.

Dastur va darsliklar tuzishda orfoepik nuqtai nazardan har bir hududning talaffuzidagi muammolar e’tiborga olinishi lozim. Masalan,,Toshkent viloyati, ayniqsa, shahar hududida ommaviy tarzda [h] bo‘g‘iz undoshi o‘rnida muntazam [x] chuqur til orqa undoshining ishlatilishi (xandaley, xamma, xurmat va b.) shuningdek Buxoro, Samarqand, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarining ayrim tumanlarida [o‘] unlisining talaffuzida muammolar borligini aytish mumkin.

Samarqand viloyatining ayrim tumanlarida [i]–[e] unlilarining aytishida chalkashliklar borligi kuzatiladi.[Hamroyev, 2019: 20]

Har bir unli va undosh tovushning talaffuzi va imlo xususiyatlari o‘rganilgach, tovushdosh (bir-biridan bitta tovush bilan farqlanuvchi,turli xil ma’nolarga ega bo‘lgan so‘zlar tushuniladi)so‘zlar hosil qilishga oid o‘quv topshiriqlaridan unumli foydalansa bo‘ladi. Masalan, unli tovushlar talaffuzi o‘rganilgach, o‘quvchilardan faqat bir unli bilan farqlanuvchi (ber-bor-bur-bo‘r-bir-bar) so‘zlar hosil qilish, undosh tovushlar talaffuzi o‘rganilgandan keyin esa bir undosh bilan farqlanuvchi so‘zlarni ro‘yxat qilish, ularning ma’nosini sharhlashni talab etadigan o‘quv topshiriqlaridan unumli foydalanish mumkin.[Saidov, 2000: 81]

Talaffuzda asosiy muammo bo‘g‘iz undoshi [h] bilan chuqur til orqa undoshi [x]ning o‘rin almashtirib qo‘llanishidadir. Bu muammoni bartaraf qilish uchun bir nechta [x] va [h] tovushlari ishtirok etgan so‘zlarni berib, ularni talaffuziga ko‘ra ikki ustunga ajratib yozish ham samarali usul hisoblanadi.

Quyida berilgan toshiriqlar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida orfoepiyaga oid ko‘nikma va malakalarni shakllantirib borish lozim.

1-topshiriq. Berilgan she’r matnida tushurib qoldirilgan tovushni qo‘yib, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qiling.

*oy gulbeor, gulbeor,
Qancha o‘rtoqlaring bor?
Ray*on, binafsha, lola,
Chuchmoma va gulnora,
Tugmachagul, boychechak,
Qizil, pushti, gul pechak .
Oq nastarin, gul*ayri -
Bog‘da o‘sadi bari.
Yoqimli *id sochadi,
Ba*ri dilni ochadi.

2-topshiriq. Berilgan gaplarning talaffuz va imlo qoidasi asosida to‘g‘ri yozilganini belgilang. ✓

- Aqli bo‘lish kifoya emas, muhimi uni ishlata bilishdir.
- Aqilli bo‘lish kifoya emas, muximi uni ishlata bilishdir.
- O‘ynap gapirsang ham, o‘ylap gapir.
- O‘ynab gapirsang ham, o‘ylab gapir.

- Qars ikki qo‘ldan chiqadi.
- Qarz ikki qo‘ldan chiqadi.
- Toshken Sharqda rivojlangan shaxarlardan biridir.
- Toshkent Sharqda rivojlangan shaharlardan biridir.
- Va’daga vafo mardning ishidir.
- Vadaga vafo martning ishidir.

3-topshiriq. Juftlab berilgan so‘zlarni o‘qing va qaysi harflarga ko‘ra farqlanayotganini aniqlang?

Mard – mart	jim – chim
Gul – kul	dil – til
Darz – dars	choy – joy
Dog’ – tog’	barcha – parcha

4-topshiriq. Quyida berilgan gaplarni moslashtiring.

1. Bu daraxtlar bir necha umr ko‘rgan. __ a. sher
2. Toza havo – ming dardga __ b. asir
3. Jangchilar ni qo‘lga olishdi. c. dars
4. O‘rmonda qo‘rqmas yashar edi. __ e. she’r
5.larni o‘z vaqtida qilish kerak. __ f. da’vo
6. Alisher to‘rt yoshidan yoza boshlagan. __ g. asr
7. Shuncha yildan buyon birorta choynak ketmagan. __ h. davvo
8. Shikoyatchining arizasi o‘qib eshittirildi. __ i. darz

Xulosa qilib aytganda, so‘zni to‘g‘ri talaffuz qilish nutq madaniyatining muhim belgilaridan biri sanaladi. Adabiy tilda to‘g‘ri yozish qanchalik muhim bo‘lsa, to‘g‘ri talaffuz ham shunchalik ahamiyatga egadir. Shuning uchun ham o‘quvchilarda to‘g‘ri talaffuz ko‘nikmalarini shakllantirishga ta’limning barcha bosqichlarida jiddiy e’tibor berish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Azimova I., K.Mavlonova va b. Ona tili va o‘qish savodxonligi 1-qism. 1-sinf uchun darslik T. – 2021
2. Azimova I., K.Mavlonova va b. Ona tili va o‘qish savodxonligi 1-qism. 2-sinf uchun darslik T. – 2021
3. G‘ofir Hamroyev. Umumiyl o‘rta ta’lim tizimida fonetikaga doir o‘quv materiallarining metodik ta’minotini takomillashtirish.(PhD) Dissertatsiyasi. Samarqand – 2019.– 20 b
4. Saidov M. O‘zbek maktablarining 5-sinflarida ona tili ta’limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi: ped. fan. nom-di dissertatsiya. avtoref.TDPU. –Toshkent, 2000.–81 b